

SHE'RIYATDA ANTROPONIMLARNING AHAMIYATI

Xanmuratova Sayyora Xalmuxammet qizi

Ajiniyoz nomidagi NDPI Ellikqal'a pedagogika fakulteti

O'zbek tili va adabiyoti ta'lim yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbek she'riyatda antroponimlarning qo'llanilishi va ahamiyati tahlil qilingan hamda ularning izohiga oid fikr-mulohazalar yuritilgan. Shuningdek O'zbek xalq shoiri Halima Xudoyberdiyeva va Sirojiddin Sayyidning she'rlarida qo'llanilgan antroponimlar keltirib o'tilgan. She'rlaridagi g'oyalarini aks ettirishda antroponimlarning ahamiyati ilmiy asosda o'rganilgan.

Kalit so'zlar: antroponim, antroponimika, onomastika, til, madaniyat, lingvistik, ismshunoslik, etimologiya, she'r, tahlil, urf-odatlar, milliylik,

KIRISH

Hayotimizda nomsiz narsaning o'zi yo'q. Nimaiki bor bo'lsa, uning nomi ham bor. Ularni ongimizda aynan nomlari bilan farqlab turamiz. Nomlar bir jismni ikkinchisidan ajratib turadi va uni shu nom bilan atalishini taqozo etadi. Bilamizki, otlar turdosh va atoqli otlarga ajraladi. Misol uchun, mevalar – umumlashtiruvchi, olma – ma'lum bir turdagi meva nomi, Baxmal olma — ma'lum bir turdagi mevaga berilgan ism. Aynan yuqorida sanalgan atoqli otlar, ya'ni ismlar, joy nomlari, narsaga qo'yilgan otlar nomlar deyiladi.

Barcha tillarning leksik qatlamida atoqli otlar o'ziga xos o'ringa ega. Ular leksikaning barcha qatlamlari bilan uzviy bog'liqdir. Atoqli otlarni ham ilmiy ham amaliy jihatdan tahlil qilib tadqiq qilish tilshunoslikda dolzarb va muhim hisoblanadi. Til lug'at tarkibining ajralmas bir qismi hisoblangan antroponimlar morfologik va sintaktik jihatdan ma'lum til normalariga, qonun-qoidalariga ega. Avvalambor, atoqli otlarni biz oilada chiroyli ism qo'yishda ko'proq foydalanamiz. Hamma narsaning nomi bo'lgani kabi insonlar ham atab qo'yilgan nomiga ega.

Kishi ismlaridan tashqari, familiyalar, otasining ismi (yoki patronimlar), laqablar, taxalluslar, kriptonimlar (yashirin ismlar) ham mavjud bo'lib, ularning barchasi inson identifikatorlari hisoblanadi. Antroponimlarning barcha turlari shaxsni atash va unga murojaat qilish imkoniyatidan foydalana olish vazifasini bajaradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Tilning onomastika sohasining katta qismini antroponimlar tashkil qiladi. Antroponim – bu insonni belgilash uchun xizmat qiladigan shaxs (atoqli) nomi. Antroponim, deb yozadi Azim Hojiev, (anthropos-odam+onuma-nom). Kishining atoqli oti, ism.

Antroponomika . Leksikologiyaning, (onomastikaning) kishi otlarini (ismlarini)

o'rganuvchi bo'limi.¹

Antroponimlarning vazifalariga kelsak, olimlar turli funksiyalarini e'tirof etadi. Misol uchun, V.D.Bondaletov "Rus onomastikasi" asarida antroponimlarning nominativ, aniqlash va farqlash kabi asosiy vazifalarini belgilab berdi. U antroponimlarning qo'shimcha funksiyalariga ijtimoiy, hissiy, akkumulyativ, ko'rsatuvchi, maqsadli, ifodali, estetik va uslubiy vazifalarini kiritdi¹³.

V.I.Suprun antroponimlar aloqalarni o'rnatishda muhim rol o'ynaydi², deb hisoblaydi.

Antroponimlarni tadqiq maqsadiga qarab bir necha guruhlariga ajratish mumkin. Jumladan, milliy, hududiy, ijtimoiy, yoshga oid, jins (gender), diniy.

Masalan, yuqorida keltirilgan xususiyatlarga ko'ra Aziz antroponimi jinsi bo'yicha erkak va etnik tomonidan o'zbek tilida so'zlashuvchi jamoaning a'zosi. Antroponimlarning boshqa vazifalariga tilning akkumulyativ, xalqning madaniyati haqidagi ma'lumotlarni saqlovchi vazifasini kiritish mumkin.

A.V.Suslova va A.V.Superanskaya "Ruscha nomlar haqida" kitobida shaxs ismlari turli xil millatlar tarixini ifodalaydi, ularda urf-odatlar, madaniy qadriyatlar, tarixiy bosqichlar, millatlarning hayot tarzi, odamlarning ijodi, dinlar va aqidalar o'z aksini topadi, deb ta'kidlaydi³.

TAHLIL VA NATIJALAR

Shoira Halima Xudoyberdiyeva poetikasida ham ismlar ko'p uchraydi. Ayniqsa, uning tarixiy qahramonlarga, dostonlarimiz va bizga ma'lum bo'lgan asarlardagi shaxslar nomlariga qayta qayta murojaat qilishi zamonaviy she'riyatda antroponimlarning o'rni bor ekanligini ko'rsatib turibdi. Shuningdek, uning "Samantaning portreti" nomli she'rida ismlar o'zgacha ranglanadi:

"Beiz ketmas, qon emasdir suv, U mudhish on, sachragan, tekkan.

Ming Samanta yig'lagan duv-duv,

Ming Samanta mushtchasin tukkan..." [2, 14]

Ushbu she'riy parchada keltirilgan antroponim – Samanta Amerikalik Djeyn Smitning qizi. Ayni she'rda birgina Samanta ismli qizchanning chizilgan surati orqali davrni, og'ir hayotni va ayanchli taqdirni gavdalantiradi.

Uning "Begim" she'rida ham:

"Siz xuddiki Farhodsiz, Shirin qaydadir, begim..." [3, 40] misrasini uchratish mumkin. Yorini bizning ishq timsollari bo'lgan Farhodga, o'zini Shiringa qiyoslagan. Yuqorida aytib o'tilgan shoiraning doston qahramonlarini ko'p qo'llashi ayni she'rda o'z isbotini topadi, ya'ni bu uning topilmasi emas, balki avvaldan mavjud va tanish bo'lgan Alisher Navoiyning "Xamsa" dostonidagi ishqiy qahramonlar.

¹ A. Hojiev . Lingvistik terminlarning izohli lug'ati. –T.: O'qituvchi, 1985.-B.17.

² Suprun V.I. Antroponimy v vokativnom upotreblenii // Izvestiya Uralskogo gosudarstvennogo universiteta, 2001. – № 20. – S.92–96.

³ Suslova A.V., Superanskaya A.V. O russkix imenax. – L.: Lenizdat, 1991. – 222 s. – S. 3.

Shoiraning shunday she'rlari ham borki, bitta to'rtligining o'zida bir emas, qator antroponimlar ishtirok etadi. Shunday she'rlaridan biri "Qutlov" nomli she'r hisoblanadi.

"Yengib o'tdingiz siz Usmon Nosir yoshidan, Qodiriyning yoshidan ham yengib o'tdingiz.

Mirzo Bobur, Ulug' Bobur yetmagan yoshga

Oллоh qo'llab Siz yetdingiz, shukur, yetdingiz." [4, 421]

"Antroponim ham onomostikaning xuddi toponim yoki zoonim kabi lisoniy birligi bo'lib, u o'z ichiga aniq birliklarni oladi." [5, 29] Masalan, ushbu to'rtlikda keltirilgan Usmon Nosir termini haqida fikr yuritilar ekan, uning tarkibiga ism, familiya, taxallus, kriptonim, andronim, ginekonim, patronim kirishini qayd qilgan. Bundan tashqari, Mirzo Bobur, Ulug' Bobur ismlari ham asli taxallus hisoblanadi. Demak, Halima Xudoyberdiyeva poetikasida antroponimlarning aksariyat turini uchratish mumkin. Uning "Qashqadaryoda" nomli she'rida ham qator ismlarni topish mumkin. Masalan:

"Bir yonda Momoxol, bir yonda To'lg'anoy...",

"Kezib Oyimxolday to'yboshi bilan...",

"Oybarchin kelbatli qizlaring uchun" [6, 70]

Yuqorida keltirilgan misralar bitta she'rning turli burchaklaridan joy olgan. Ismlarga xon, oy, jon kabi qo'shimchalarni qo'shib aytish ham hurmat, ham estetik go'zallik belgisi sanaladi. Misralarda qo'llangan Momoxol, To'lg'anoy, Oybarchin ismlari qadimiy ismlardir. O'zining ma'lum ma'nosiga, kelib chiqish tarixiga ega bo'lgan bu ismlarning she'rdagi o'rni ahamiyatlidir. Bugungi kunda bu kabi ismlar qo'yilishi kamdan kam uchraydi. Shu sababli ham ular o'zining ma'naviy jihatini yo'qotib bormoqda. Shoiraning nafaqat tarixiy shaxslar ishtirok etgan yoki biron topilma ismga eha she'rlari mavjud, balki aftobiagrafik she'rlaridan biri "Ulug'bekka ko'ylak tikdim" nomli she'ri ham antroponomik she'r hisoblanadi:

"Ulug'bekka ko'ylak tikdim, sahar turib, suyunib,

Bolam kiygach uchib-qo'nib kapalakka aylanar." [3, 65]

Parchadagi Ulug'bek ismli shaxs Halima Xudoyberdiyevaning o'g'li ekanligi ma'lum. Bu ism ulug' beklarga, haqiqiy o'ziga bek o'zbeklarga xos degan ma'noni anglatadi va uning tag zamirida Mirzo Ulug'bekka ixlos ham yo'q emas.

Shu o'rinda shoir Sirojiddin Sayyid she'rlarida antroponimlar ham faol qo'llanilish holatlarini uchratish mumkin.

Odam Ato birlan Momo Havoni

Yaratdi ham berdi jabru jafoni.

O'n sakkiz yoshimda o'tgan xatoni

Qirq yoshimda takror qilsam kulgili.

Bu bandda tilga olingan Odam Ato va Momo Havo kabi antroponimlari orqali

she'ning badiiy g'oyasini ochishda foydalangan deyish mumkin. Bunda "Odam Ato va Momo Havo yer yuziga tushgan ilk odamlar bo'lib, ular yerning ikki xil joyiga tushiriladi, ya'ni Odam Ato Hindistondagi Navz yoki Bavz tog'iga, Momo Havo esa Jiddada hayot kechirishga majbur bo'ladi"[5, 34]. Keyinchalik esa ular yerda turli mashaqqatlarga duch kelib, bir-birlarini topadi va hayoti davomidagi turli xil qiyinchiliklarni birgalikda boshidan o'tkazadi. Yuqoridagi voqelikka ishora qilar ekan, yoshligida qilgan xatolarini qirq yoshida takrorlash kulgili ekanligini, ya'ni xatolarini anglab turib ham yana xato qilishni qoralash maqsadida mazkur antroponimlarga murojaat qilgan deyish mumkin.

Alpomishning, Temurbekning avlodisan,
Arslonyurak mard zotlarning zuryodisan.

Alpomish antroponimi o'zbek xalq og'zaki ijodiga mansub "Alpomish" dostonining bosh qahramoni. Unga xos xususiyatlar, ya'ni jasurligi, sadoqat va diyonatligi, botir va dovyuraklik fazilat va xislatlari o'quvchi ko'z o'ngida gavalantirilishi uchun ham qo'llanilgan. Temurbek esa tarixda o'z nomini butun jahonga tanitgan hamda yetti iqlim hukmdori Amir Temurga xos xususiyatlarini eslatish uchun qo'llanilgan antroponim. Shoir ushbu satrlarda yosh avlodlar Alpomish va Amir Temur kabi jasur va dovyurak insonlarning zurriyodi ekanligi eslatish orqali vatanparvarlikni oshirish uchun ham tilga olingan.

Nonko'r beklar, beoqibat mirzolar,
Kimlar Sizga qazmadilar cho, **Bobur**.

Bobur antroponimi orqali tarixda yashab o'tgan, o'z yurtidan ayrilgan va Hindistonda boburiylar sulolasiga asos solgan buyuk tarixiy shaxs, shoir, mohir sarkardaga qilingan xiyonatga ishora qiladi. Satrlarda esa Boburga xiyonat qilgan beklar, o'z yaqinlari hamda uni sog'inch va azob girdobiga g'arq qilgan dushmanlarning qilmishlarini yodga soladi. Buyuk shoh va shoir Bobur esa hayoti iztirob va uqubatlarni o'tsa-da, doim kurashib yashaganligini, irodasi mustahkam ekanligini anglash mumkin. Bu shoirning birgina antroponim bilan katta tarixiy voqelikni tasvirlashga erishganligini ko'rsatadi.

Sirojiddin Sayyid she'rlarida turli suv havzalarining nomi qo'llanilishi ham faol. Shoirning quyidagi she'riy misralarini misol tariqasida keltirish mumkin:

Umring o'tar **O'rikli**soy
Suvlariday sharqirab
Izlaringdan nurlar qolsin
Yo'llar qolsin yarqirab.

O'rikli soy gidronimi Zomin tumanida joylashgan bo'lib, atrofi dam olish maskaniga aylantirilgan soy. Ushbu misralarda inson umri ham O'rikli soy kabi juda tez oqib ketadi, vafot etganidan keyin esa faqat yaxshi nom va chiroyli xotiralar orqali yodga olinsin, ya'ni u hayoti davomida qilgan barcha yaxshi va xayrli ishlari bilan

abadiy xotiralarda qolsin, degan ezgu tilak singdirilgan deyish mumkin.

Bundan tashqari, shoir she'rlarida kosmonimlari ham uchraydi: "Kosmonim (yunoncha: kosmos-olam, koinot) – kosmik fazoda joylashgan samoviy obyektlarning atoqli oti, onomastik ko'lam tiplaridan biri hisoblanadi". Quyidagi satrda tahlil qilar erkanmiz, kosmoniv vositasida badiiy g'oya ochib berilganligini ko'rish mumkin.

Go'yo tug'ilgandek falak mushtlari –

Xatarnok charaqlar **Zuhal, Mushtariy**.

Misrada kelayotgan xatarnok so'zi xatarli, xatar bilan ma'nosida kosmonimlarning ko'rinish holatini aks ettirgan. Zuhal va Mushtariy kosmonim Saturn va Yupiter sayyorasining qadimgi nomlari. Satrda esa go'yo falakda xavf-xatar tug'ilib, Saturn va Yupiter sayyorolari xatar borligini sezib, uni bartaraf etish uchun charaqlamoqda, degan qadimiy tasavvurlar bilan bog'liq bashoratlar eslatilgan. Ya'ni ajdodlarga xos fikrlash tarziga ishora qilgan deyish mumkin.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Darhaqiqat, inson yaralibdiki, o'rganish bilan mashg'ul. Jonlimi, jonsizmi, barchasiga nom qo'ygan. Bu ham aynan olam bilan tanishish, bog'lanishning ilk ko'rinishlari bo'lib xizmat qilgan. Biror narsa, joy yoki shaxsga nom, ism qo'yilganda ma'lum bir jihati, tarixi, fe'l-atvoriga qarab va niyat qilingan holda qo'yiladi. Bu ko'rinish urf-odatga aylanib ulgurgan. Farzand tug'ilganda ism qo'yilishi ma'lum. U juma kunlari tug'ilsa, Jumaboy, Jumagul, Ramazon oylarida tug'ilsa, Ramazon, Ro'zivoi, Ro'zigul deb ism qo'yishadi. Yana shunday hollar ham bo'ladiki, ajdodlarining davomchisi bo'lsin, degan yaxshi niyatda ularning ismlarini, yoki falonchiga o'xshagan bo'lsin deb ixlos bilan ism tanlashadi. Milliyligimizni ta'minlashda antroponimlarning o'rni katta.

Xulosa qilib aytganda, milliy an'analar irmog'idan suv ichgan shoira she'riyatida antroponimlar badiiy g'oyaga erishisha muhim vazifa bajargan. Xalqqa xos milliy qadriyatlarni singdirgan antroponimlar hamda ingliz xalqiga xos shaxs otiga murojaat qilish orqali ta'sirchanlikka erishganligini ko'rish mumkin. Shoira antroponimlarga murojaat qilar ekan, birinchi navbatda she'rlariga xalqchil ruh baxsh etishga urinadi va maqsadiga erishadi. Umuman olganda, zamonaviy she'riyatda ham mumtoz she'riyatdagi kabi ismlarni keng qo'llash an'anasi davom etmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Enazarov T.J, Husanova M.N, Esemuratov A.E. O'zbek nomshunosligi: Monografiya. – Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim Vazirligi. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, 2015. – B. 12.
2. Xudoyberdiyeva H. Muqaddas ayol. – Toshkent: G'afur G'ulom, 1987. – B. 14.
3. Xudoyberdiyeva H. Saylanma. – Toshkent: Sharq, 2000. – B. 40, 65.

4. Xudoyberdiyeva H. Buyuk qushlar. – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 2012. – B. 421.
5. Begmatov. E.A. O‘zbek tili antroponimikasi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 2013. – B. 29.
6. Begmatov. E. a. ism chiroyi. – Toshkent. Fan nashriyoti, 1994. – B. 70.
7. Yo‘doshev B. O‘zbek omonastikasi masalalari. –Samarqand:. SamDU bosmaxonasi. 2011. –B. 37, 44, 49, 57.
8. Sayyid S. Dil nafasi. –Toshkent:, O‘zbekiston nashriyoti. 2007. –B. 174.
9. Sayyid S. Matonat manzumasi. –Toshkent:, Mashhur press nashriyoti. 2018. –B. 8, 20, 23, 187.
10. Sayyid S. Sevgi mamlakati. –Toshkent:, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 1987. –B. 17.
11. Tursunov A. Payg‘ambarlar tarixi. –Toshkent:, G‘afur G‘ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti. 2016. –B. 34